



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(6)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 114 sahifa,
22-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.


Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| “Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari..... | 10 |
| Madaminova Gulzira Gulamkadirovna | |
| Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni | 14 |
| Arolov Davronjon Davlataliyevich | |
| Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish | 19 |
| Asatullayeva Sitara Dilmurod qizi | |
| Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti..... | 22 |
| Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi | |
| Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari | 26 |
| Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi | |
| Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi..... | 30 |
| Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna | |
| Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati..... | 35 |
| Hojiyeva Nasiba Bahodirovna | |
| Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari..... | 39 |
| Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi | |
| Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati | 43 |
| Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li | |
| Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati..... | 48 |
| Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi | |
| Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari | 54 |
| Nusratova Mexriniso Baxshilloevna | |
| Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni..... | 59 |
| Pulatova Dilfuza Azamkulovna | |
| Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari..... | 66 |
| Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li | |
| Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi | 70 |
| Qurbonova Sevara Suyunovna | |
| Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari | 74 |
| Raxmatov Oxunjon Soibjonovich | |
| “Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari..... | 79 |
| Saidova Feruza Akramovna | |
| Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish..... | 84 |
| Sidiqova Yulduz Sobirovna | |
| “So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi..... | 88 |
| Toxirova Dilshoda Inom qizi | |
| Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash | 92 |
| Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi | |
| Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari..... | 96 |
| Xaydarova Go‘zalxon | |



| | |
|--|-----|
| Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati..... | 101 |
| Xolmatova Dilshoda Sherali qizi | |
| Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari | 105 |
| Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna | |
| Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish..... | 109 |
| Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna | |



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA XALQ OG'ZAKI IJODI VOSITASIDA BOLALARNING AXLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim” fakulteti

“Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi” (maktabgacha ta'lim) magistranti

Taqirizchi: Abdullayev Abduqayum

CHDPU, pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi vositalaridan foydalanish orqali bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Xalq og'zaki ijodi namunalarning bolalar tarbiyasidagi o'рни, ularning ma'naviy-axloqiy rivojlanishga ta'siri hamda tarbiyaviy imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Ertaklar, maqollar, topishmoqlar, rivoyatlar va afsonalarning bolalarda halollik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, kattalarga hurmat va kichiklarga izzat kabi fazilatlarni shakllantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari xalq og'zaki ijodi vositalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish bolalarning axloqiy tarbiyasini takomillashtirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, axloqiy tarbiya, maktabgacha ta'lim, ertak, maqol, topishmoq, ma'naviy qadriyatlar, bolalar tarbiyasi, milliy meros.

Abstract: This article discusses the issues of forming the moral qualities of children through the use of folk oral art in preschool educational organizations. The role of folk oral art samples in the upbringing of children, their impact on spiritual and moral development, and their educational potential are scientifically analyzed. The importance of fairy tales, proverbs, riddles, legends, and myths in the formation of such qualities in children as honesty, truthfulness, diligence, patriotism, respect for elders, and respect for younger ones is substantiated. The results of the study show that the effective use of folk oral art in the educational process serves to improve the moral education of children.

Key words: folk oral art, moral education, preschool education, fairy tale, proverb, riddle, spiritual values, child education, national heritage.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы формирования нравственных качеств детей посредством использования народного устного искусства в дошкольных образовательных организациях. Научно анализируется роль образцов народного устного искусства в воспитании детей, их влияние на духовно-нравственное развитие и их образовательный потенциал. Обосновывается важность сказок, пословиц, загадок, легенд и мифов в формировании у детей таких качеств, как честность, правдивость, трудолюбие, патриотизм, уважение к старшим и уважение к младшим. Результаты исследования показывают, что эффективное использование народного устного искусства в образовательном процессе способствует улучшению нравственного воспитания детей.

Ключевые слова: народное устное искусство, нравственное воспитание, дошкольное образование, сказка, пословица, загадка, духовные ценности, воспитание детей, национальное наследие.

KIRISH

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biri yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishdan iboratdir. Bu vazifani amalga oshirishda maktabgacha ta'lim tizimi alohida o'rin tutadi. Chunki bolaning shaxs sifatida shakllanishi, uning dunyoqarashi, xulq-atvori va axloqiy qarashlarining dastlabki asoslari aynan maktabgacha yosh davrida vujudga keladi.



Maktabgacha yosh davri bolaning ma'naviy va axloqiy rivojlanishida eng mas'uliyatli bosqich hisoblanadi. Bu davrda bolalar atrofidagi voqea-hodisalarni faol qabul qiladi, kattalarning xatti-harakatlarini kuzatadi va ularga taqlid qiladi. Shuning uchun ham bolalarda ezgulik, mehr-oqibat, adolat, halollik va mehnatsevarlik kabi sifatlarni shakllantirish pedagogik faoliyatning muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi.

Bolalarning axloqiy tarbiyasida xalq og'zaki ijodi alohida pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek xalqining asrlar davomida yaratgan boy ma'naviy merosi - ertaklar, maqollar, matallar, topishmoqlar, rivoyatlar va afsonalar xalqning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi hamda tarbiyaviy qarashlarini o'zida mujassam etgan. Ushbu asarlar bolalarda ijobiy fazilatlarini shakllantirish, milliy qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalash va ma'naviy barkamollikni rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Shu nuqtayi nazardan, xalq og'zaki ijodi vositalarining tarbiyaviy imkoniyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish va amaliyotga samarali joriy etish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy tarbiyasida xalq og'zaki ijodidan foydalanish masalasi pedagogika, psixologiya va folklorshunoslik fanlarida uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinayotgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalq og'zaki ijodi namunalari mujassam bo'lgan ma'naviy-axloqiy g'oyalar bolalar shaxsini shakllantirishda muhim tarbiyaviy vosita vazifasini bajaradi.

Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlarida ham yosh avlod tarbiyasida xalq donishmandligi va og'zaki ijod namunalaridan foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Abu Nasr Forobiy o'z asarlarida inson kamoloti axloqiy tarbiya bilan chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlagan. Uning fikricha, jamiyat taraqqiyoti komil insonlarni tarbiyalash orqali ta'minlanadi. Abu Ali ibn Sino esa bolaning ma'naviy rivojlanishida oila va ijtimoiy muhitning ahamiyatini alohida qayd etib, yosh avlodni ezgulik, halollik va odob-axloq ruhida tarbiyalash zarurligini ta'kidlagan.

Alisher Navoiy asarlarida ham insoniy fazilatlar, mehr-oqibat, saxovat, adolat va kamtarlik kabi axloqiy qadriyatlar keng yoritilgan. Mutafakkirning pedagogik qarashlari xalq og'zaki ijodidagi tarbiyaviy g'oyalar bilan uyg'unlashib, bolalar tarbiyasida muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Rus pedagog olimi K. D. Ushinskiy xalq pedagogikasini tarbiyaning eng muhim manbalaridan biri deb hisoblagan. U xalq ertaklari, maqollari va matallarida xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi mujassam ekanligini ta'kidlab, ulardan bolalar tarbiyasida samarali foydalanish zarurligini asoslab bergan. Olimning fikricha, xalq og'zaki ijodi bolalarning axloqiy ongini rivojlantirish bilan birga, ularda milliy o'zlikni anglash hissini ham shakllantiradi.

L. S. Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasida bolaning ma'naviy va axloqiy rivojlanishi uning ijtimoiy muhit bilan munosabati orqali yuzaga kelishi ta'kidlanadi. Xalq og'zaki ijodi namunalari esa bolaning ijtimoiy tajribani egallashi va axloqiy me'yorlarni o'zlashtirishida muhim vosita hisoblanadi. Vigotskiy bolalar rivojlanishida til va muloqotning o'rniga alohida e'tibor qaratgan bo'lib, xalq og'zaki ijodi aynan nutq va tafakkur rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sanaladi.

J. Piaje bolalarning axloqiy rivojlanishini o'rganar ekan, axloqiy tushunchalar bolalik davrida bosqichma-bosqich shakllanishini qayd etadi. Olimning fikricha, ertak va hikoyalar orqali bolalar yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik haqidagi dastlabki tasavvurlarni egallaydilar. Shu sababli axloqiy mazmunga ega bo'lgan xalq og'zaki ijodi namunalari bolaning axloqiy tafakkurini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbek folklorshunos olimlari T. Mirzayev, M. Jo'rayev, B. Sarimsoqov va boshqa tadqiqotchilar xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy imkoniyatlarini keng yoritib berganlar. Ularning ilmiy tadqiqotlarida ertaklar, dostonlar, maqollar va topishmoqlarning yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati ilmiy asoslangan.

T. Mirzayevning ilmiy ishlarida xalq ertaklarining bolalar ma'naviy dunyosini boyitishdagi o'rni alohida tahlil qilingan. Tadqiqotchining fikricha, ertaklarda ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qilishi bolalarda adolatga ishonch va ijobiy hayotiy pozitsiyani shakllantiradi. Maqollar esa qisqa va mazmunan chuqur bo'lib, bolalarga axloqiy me'yorlarni sodda va tushunarli shaklda yetkazishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi sohasida faoliyat yuritgan olimlar F. R. Qodirova, M. M. Inoyatova va boshqa tadqiqotchilar bolalar tarbiyasida milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslarini ishlab chiqqanlar. Ularning tadqiqotlarida xalq og'zaki ijodi bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etishda samarali pedagogik vosita sifatida baholangan.

So'nggi yillarda UNESCO va UNICEF kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham bolalarning ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishida milliy madaniy merosdan foydalanish muhimligi ta'kidlanmoqda. Xususan, nomoddiy madaniy meros elementlari orqali bolalarda madaniy identifikatsiya, hurmat, bag'rikenglik va ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirish mumkinligi qayd etilgan.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, xalq og'zaki ijodi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida xalq og'zaki ijodining umumiy tarbiyaviy imkoniyatlari yoritilgan bo'lsa-da, maktabgacha ta'lim tashkilotlari sharoitida undan tizimli foydalanish metodikasi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu bois mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlarni davom ettirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot maktabgacha ta'lim tashkilotida xalq og'zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya konsepsiyasi hamda zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining nazariy qarashlari tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy imkoniyatlarini o'rganish hamda ularni maktabgacha ta'lim amaliyotiga tatbiq etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslarini Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, shuningdek, K. D. Ushinskiy, L. S. Vigotskiy, J. Piaje kabi olimlarning tarbiya va shaxs rivojlanishiga oid ilmiy qarashlari tashkil etdi. Ushbu nazariyalarda bolaning ma'naviy-axloqiy rivojlanishida ijtimoiy muhit, muloqot, milliy qadriyatlar va tarbiyaviy ta'sirning muhim o'rni ilmiy jihatdan asoslangan. Ayniqsa, Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi xalq og'zaki ijodi vositalarining bolalar ongiga ta'sir mexanizmlarini tushuntirishda muhim metodologik manba bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot davomida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Dastlab, nazariy tahlil metodi yordamida mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, maqolalar, dissertatsiyalar va normativ-huquqiy hujjatlar o'rganildi. Ushbu metod orqali xalq og'zaki ijodi, axloqiy tarbiya, ma'naviy qadriyatlar va bolalar rivojlanishi bilan bog'liq nazariy qarashlar tizimlashtirildi. O'zbekiston va xorij olimlarining ilmiy ishlari qiyosiy ravishda tahlil qilinib, tadqiqot muammosining o'rganilganlik darajasi aniqlandi.

Qiyosiy tahlil metodi yordamida xalq og'zaki ijodidan foydalanish bo'yicha turli pedagogik yondashuvlar o'rganildi. Maktabgacha ta'lim tizimida qo'llanilayotgan milliy va xorijiy tajribalar tahlil qilinib, ularning samarali jihatlari aniqlashtirildi. Ayniqsa, bolalarning axloqiy tarbiyasida ertaklar, maqollar, topishmoqlar va rivoyatlardan foydalanishning afzalliklari o'zaro taqqoslandi.

Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish metodidan keng foydalanildi. Kuzatishlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonlari davomida amalga oshirildi. Bolalarning ertak tinglash jarayonidagi faolligi, qahramonlarga munosabati, axloqiy xulosalar chiqarish qobiliyati, tengdoshlari bilan muloqoti va xulq-atvoridagi o'zgarishlar muntazam kuzatib borildi. Kuzatish natijalari maxsus qaydnomalar asosida rasmiylashtirildi va tahlil qilindi.

Suhbat metodi orqali tarbiyachilar, ota-onalar va mutaxassislarining fikrlari o'rganildi. Suhbat davomida xalq og'zaki ijodining bolalar axloqiy tarbiyasiga ta'siri, undan foydalanishdagi mavjud muammolar va samarali usullar yuzasidan ma'lumotlar to'plandi. Olingan natijalar umumlashtirilib, tadqiqot xulosalarini shakllantirishda foydalanildi.

Shuningdek, pedagogik tajribalarni umumlashtirish metodidan ham foydalanildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq ertaklari, maqollar, topishmoqlar va rivoyatlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'rganilib, ularning bolalarning axloqiy sifatlarga ta'siri tahlil qilindi. Xususan, "Zumrad va Qimmat", "Ur to'qmoq", "Egri va To'g'ri", "Aqlli bola" kabi xalq ertaklari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarda halollik, adolat, mehnatsevarlik va mehr-oqibat kabi fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Tadqiqotda tahlil va sintez metodlari yordamida to'plangan ma'lumotlar qayta ishlandi. Turli manbalardan olingan nazariy va amaliy ma'lumotlar o'zaro taqqoslandi, umumlashtirildi hamda ilmiy xulosalar chiqarildi. Induksiya va deduksiya metodlari yordamida alohida kuzatishlardan umumiy xulosalarga, umumiy nazariy qarashlardan esa amaliy tavsiyalarga o'tish imkoniyati yaratildi.

Tadqiqotning ishonchligi foydalanilgan ilmiy manbalar xilma-xilligi, kuzatish va suhbatlar natijalarining o'zaro mosligi hamda nazariy va amaliy ma'lumotlarning qiyosiy tahlili orqali ta'minlandi. Tadqiqot davomida olingan natijalar mavjud ilmiy qarashlar bilan taqqoslanib, ularning ilmiy asoslanganligi tekshirildi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari xalq og'zaki ijodi namunalaridan maqsadli va tizimli foydalanish bolalarning axloqiy sifatlarni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Ayniqsa, ertaklar orqali yaxshilik va yomonlikni farqlash, maqollar orqali odob-axloq me'yorlarini o'zlashtirish, topishmoqlar orqali tafakkur va nutqni rivojlantirish hamda rivoyatlar orqali milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish mumkinligi aniqlandi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi xalq og'zaki ijodi vositalarining maktabgacha yoshdagi bolalar axloqiy tarbiyasidagi o'rni ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi. Olingan natijalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyani takomillashtirish hamda milliy qadriyatlar asosida barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladigan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi vositalaridan foydalanishning bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati o'rganildi. Kuzatishlar, suhbatlar hamda pedagogik tajribalarni tahlil qilish natijalari xalq og'zaki ijodi namunalari bolalar shaxsiyati rivojiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Ayniqsa, ertaklar, maqollar, topishmoqlar va rivoyatlar bolalarda axloqiy me'yorlar haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalar xalq ertaklariga katta qiziqish bilan munosabat bildiradilar. Ertak qahramonlari orqali ular yaxshilik va yomonlik, halollik va yolg'onchilik, mehnatsevarlik va dangasalik kabi tushunchalarni oson qabul qiladilar. Masalan, "Zumrad va Qimmat" ertagini o'rganish jarayonida bolalar Zumrad obrazini ijobiy qahramon sifatida baholab, uning mehnatsevarligi, kamtarligi va mehribonligini alohida ta'kidladilar. Qimmat obrazining salbiy xatti-harakatlari esa bolalar tomonidan tanqid qilindi. Bu holat ertaklarning axloqiy tarbiya vositasi sifatidagi samaradorligini ko'rsatadi.

Kuzatishlar davomida bolalar ertak qahramonlariga taqlid qilishga moyillik bildirishlari aniqlandi. Mashg'ulotlardan keyin ular kundalik faoliyatlarida ertaklarda aks etgan ijobiy fazilatlarni namoyon etishga harakat qildilar. Xususan, o'yinchoqlarni yig'ishtirish, do'stlariga yordam berish, navbat kutish va kattalarga hurmat ko'rsatish kabi ijobiy xatti-harakatlarning ko'paygani kuzatildi. Bu esa xalq ertaklarining bolalar xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, maqollardan foydalanish ham bolalarda axloqiy qarashlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Maqollar qisqa, lo'nda va mazmunan boy bo'lgani sababli bolalar tomonidan tez eslab qolinadi. "Yaxshilik qil, dengizga ot", "Mehnat qilgan to'yadi", "Kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda bo'l" kabi maqollarni izohlash jarayonida bolalar mehnatsevarlik, saxovatpehalik va odoblilik kabi tushunchalarning mazmunini anglab bora boshladilar. Tarbiyachilar fikriga ko'ra, maqollar muntazam qo'llanilganda bolalarda ijobiy xulq-atvor me'yorlarini mustahkamlash imkoniyati ortadi.

Topishmoqlardan foydalanish natijalari ham alohida ahamiyat kasb etdi. Tadqiqot davomida topishmoqlar nafaqat bolalarning tafakkurini rivojlantirishi, balki ularda sabr-toqat, diqqat va mustaqil fikrlash kabi sifatlarini shakllantirishga yordam berishi aniqlandi. Topishmoqlarni yechish jarayonida bolalar bir-birining fikrlarini tinglashga, o'z taxminlarini asoslashga va jamoada ishlashga o'rganadilar. Bu esa axloqiy va kommunikativ kompetensiyalarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Rivoyat va afsonalardan foydalanish natijalari ham ijobiy bo'ldi. Ayniqsa, buyuk ajdodlarimiz, tarixiy shaxslar va milliy qahramonlar haqidagi rivoyatlar bolalarda vatanparvarlik, milliy g'urur va ajdodlarga hurmat tuyg'ularini shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qildi. Bolalar rivoyat qahramonlarining jasorati, donoligi va fidoyiligini qiziqish bilan tingladilar hamda ularga o'xshashga intilishlarini bildirdilar.

Muhokama natijalari xalq og'zaki ijodining bolalar axloqiy tarbiyasidagi o'rni haqidagi mavjud ilmiy qarashlarni tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari L. S. Vigotskiyning bolaning rivojlanishida ijtimoiy-madaniy muhitning muhim o'rni haqidagi nazariyasi bilan mos keladi. Xalq og'zaki ijodi namunalari bolalarga jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy qadriyatlarni sodda va tushunarli shaklda yetkazadi. Natijada bola ushbu qadriyatlarni o'zlashtirib, kundalik hayotida qo'llashga harakat qiladi.

Shuningdek, J. Piaje tomonidan ilgari surilgan axloqiy rivojlanish nazariyasi ham tadqiqot natijalari bilan uyg'unlashadi. Piaje bolalar axloqiy tushunchalarni amaliy faoliyat va ijtimoiy munosabatlar jarayonida egalashini ta'kidlagan. Xalq ertaklari va maqollar bilan ishlash jarayonida bolalar yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlarini shakllantirib, axloqiy xulosalar chiqarishga o'rganadilar.

Muhokamalar davomida tarbiyachilar xalq og'zaki ijodidan foydalanishning ayrim muammolarini ham qayd etdilar. Jumladan, ayrim mashg'ulotlarda zamonaviy interfaol metodlardan yetarli foydalanilmasligi, bolalarning yosh xususiyatlariga mos materiallarni tanlashdagi qiyinchiliklar hamda xalq og'zaki ijodi namunalariidan foydalanish bo'yicha metodik qo'llanmalar yetishmasligi kuzatildi. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida tarbiyachilar uchun maxsus metodik tavsiyalar ishlab chiqish zarurligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari asosida xalq og'zaki ijodidan foydalanishning quyidagi samarali yo'nalishlari belgilandi:

- ertaklarni sahnalashtirish orqali axloqiy tushunchalarni mustahkamlash;
- maqollarni kundalik tarbiyaviy vaziyatlar bilan bog'lab tushuntirish;
- topishmoqlardan tafakkur va muloqotni rivojlantirish vositasi sifatida foydalanish;
- rivoyatlar orqali milliy qadriyatlarga hurmat ruhini shakllantirish;
- oilaviy tarbiya bilan maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini uyg'unlashtirish.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari xalq og'zaki ijodi vositalari bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishda yuqori pedagogik imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Ular bolalarda halollik, mehnatsevarlik,

rostgo'ylik, mehr-oqibat, vatanparvarlik, kattalarga hurmat va kichiklarga izzat kabi fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan tizimli va maqsadli foydalanish ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda bolalarning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari, xulq-atvori va ma'naviy qadriyatlari shakllanib boradi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning axloqiy tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish, ularda ijobiy insoniy fazilatlarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sanaladi. Mazkur jarayonda xalq og'zaki ijodi namunalaridan samarali foydalanish katta pedagogik ahamiyatga ega.

Tadqiqot davomida xalq og'zaki ijodining turli janrlari - ertaklar, maqollar, topishmoqlar, rivoyatlar va afsonalarning bolalar axloqiy tarbiyasiga ta'siri nazariy va amaliy jihatdan o'rganildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, xalq og'zaki ijodi bolalarga axloqiy qadriyatlarni sodda, tushunarli va qiziqarli shaklda yetkazish imkonini beradi. Xalq donishmandligining mahsuli bo'lgan ushbu asarlarda ezgulik, adolat, mehnatsevarlik, halollik, vatanparvarlik, mehr-oqibat va insonparvarlik kabi fazilatlar yorqin ifodalangan bo'lib, ular bolalar qalbiga chuqur ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari ertaklarning bolalar axloqiy tarbiyasidagi o'rni ayniqsa katta ekanligini tasdiqladi. Ertak qahramonlarining xatti-harakatlari va boshidan kechirgan voqealari orqali bolalar yaxshilik va yomonlik, rostgo'ylik va yolg'onchilik, mehnatsevarlik va dangasalik o'rtasidagi farqni anglay boshlaydilar. Ijobiy qahramonlarga nisbatan havas va taqlid hissining shakllanishi esa bolalarning kundalik xulq-atvorida ham namoyon bo'lishi kuzatildi. Bu holat ertaklarning axloqiy tarbiya vositasi sifatidagi samaradorligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shuningdek, maqollar bolalarda axloqiy tushunchalarni shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi aniqlandi. Maqollar qisqa, lo'nda va mazmunan boy bo'lgani sababli bolalar tomonidan tez qabul qilinadi va eslab qolinadi. Ular orqali bolalarda mehnatsevarlik, odoblilik, kattalarga hurmat, kichiklarga g'amxo'rlik va mas'uliyat kabi fazilatlarini shakllantirish imkoniyati mavjud. Topishmoqlar esa bolalarning tafakkurini rivojlantirish bilan bir qatorda, sabr-toqat, e'tibor va mustaqil fikrlash kabi sifatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Rivoyat va afsonalar bolalarda milliy qadriyatlarga hurmat, tarixiy xotira va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularda xalqning ko'p asrlik tajribasi, orzu-intilishlari va ma'naviy merosi mujassam bo'lib, yosh avlodning milliy o'zligini anglashiga yordam beradi. Shu jihatdan xalq og'zaki ijodi bolalarning nafaqat axloqiy, balki ma'naviy va madaniy rivojlanishida ham muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot davomida xalq og'zaki ijodi vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari ham tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, xalq og'zaki ijodi asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarda muloqot madaniyati, hamkorlik, o'zaro hurmat va ijobiy munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ertaklarni sahnalashtirish, rolli o'yinlar tashkil etish, maqollar mazmunini muhokama qilish va topishmoqlar yechish kabi faoliyat turlari bolalarning faol ishtirokini ta'minlab, axloqiy tushunchalarni yanada mustahkam o'zlashtirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodidan foydalanishni yanada takomillashtirish bo'yicha bir qator tavsiyalar ishlab chiqildi. Jumladan, xalq og'zaki ijodi namunalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga tizimli ravishda integratsiya qilish, tarbiyachilar uchun maxsus metodik qo'llanmalar yaratish, interfaol metodlardan keng foydalanish hamda ota-onalarni ushbu jarayonga faol jalb etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Oilada va maktabgacha ta'lim tashkilotida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning uzviyligi bolalarda axloqiy sifatlarining yanada barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, xalq og'zaki ijodi maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy tarbiyasida beqiyos pedagogik ahamiyatga ega. U bolalarda ezgulik, halollik, adolat, mehnatsevarlik, mehr-oqibat va vatanparvarlik kabi yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim tizimida xalq og'zaki ijodi imkoniyatlaridan keng foydalanish, uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish hamda tarbiyaviy faoliyatning muhim tarkibiy qismi sifatida qo'llash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Shunday qilib, olib borilgan tadqiqot xalq og'zaki ijodi vositalaridan maqsadli va tizimli foydalanish bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi. Mazkur natijalar maktabgacha ta'lim tizimida ma'naviy-axloqiy tarbiyani yanada takomillashtirish, milliy qadriyatlar asosida barkamol avlodni voyaga yetkazish hamda yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021. - 464 b.



3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standarti to'g'risida"gi qarori. - Toshkent, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. - Toshkent, 2022.
5. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. - 320 b.
6. Ibn Sino A. Donishnoma. - Toshkent: Sharq, 2018. - 286 b.
7. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2020. - 280 b.
8. Ushinskiy K.D. Pedagogik asarlar. - Moskva: Pedagogika, 1988. - 416 b.
9. Vigotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. - Moskva: Pedagogika, 2019. - 536 b.
10. Piaje J. Bola psixologiyasi va tafakkur rivojlanishi. - Moskva: Prosveshcheniye, 2018. - 384 b.
11. Qodirova F.R. Maktabgacha pedagogika. - Toshkent: Tafakkur, 2021. - 368 b.
12. Inoyatova M.M. Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi. - Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2023. - 304 b.
13. Hasanboyeva O.U., To'raqulova X.A. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. - Toshkent: Ilm Ziyo, 2020. - 312 b.
14. Mirzayev T. O'zbek xalq og'zaki ijodi. - Toshkent: O'qituvchi, 2019. - 352 b.
15. Jo'rayev M. O'zbek folklori va etnografiyasi. - Toshkent: Fan, 2018. - 280 b.
16. Sarimsoqov B. O'zbek folklorshunosligi masalalari. - Toshkent: Fan, 2017. - 296 b.
17. Imomov K. O'zbek xalq ertaklari poetikasi. - Toshkent: Fan, 2019. - 248 b.
18. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. - Paris: UNESCO Publishing, 2020.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.